

**YANGI O'ZBEKISTONDA AHMAD DONISH FALSAFIY MEROSINI
O'RGANISHGA MUNOSABAT**

Miltiqboyev Bobir Zokirovich

O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Yangi O'zbekistonda Ahmad Donish falsafiy merosini o'rganishga bo'lgan zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda mutafakkirning ma'rifatparvarlik g'oyalari, jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan va madaniyatga oid qarashlari yangi davr talablaridan kelib chiqib qayta talqin etiladi. Shuningdek, uning asarlarining milliy qadriyatlarni tiklash, tarixiy xotirani mustahkamlash va yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashdagi o'rni ochib beriladi. Maqolada Ahmad Donish merosining Yangi O'zbekiston sharoitida ilmiy, ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyati asoslab berilib, uni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish zarurati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Ahmad Donish, Yangi O'zbekiston, falsafiy meros, ma'rifatparvarlik, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, ijtimoiy tafakkur, ma'naviy taraqqiyot, ilmiy meros, pedagogik ahamiyat.

Ahmad Donishning ilgari surgan g'oyalari, ayniqsa islohotlar, ta'lim va jamiyatni modernizatsiyalash borasidagi fikrlari XXI asrda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Mustaqil O'zbekiston tarixida amalga oshirilgan islohotlar, ayniqsa so'nggi yillarda prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligida olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy yuksalish, ta'lim sohasidagi tub o'zgarishlar, Donishning tarixiy-falsafiy qarashlari bilan bevosita hamohangdir. Songgi yillarda Ahmad donish va uning ilmiy merosini o'rganish bo'yicha tadqiqot ishlari sezilarli darajada yangi pog'onaga ko'tarilmoqda. Xususan mamlakatimiz olimlaridan Z.Axmedova o'zining yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda Ahmad Donish ilmiy merosidan foydalanish mavzusida tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Z.Axmedovaning ta'kidlashicha "Olamshumul tarixiy jarayonning obektiv natijalari shundan iborat bo'ldiki, chor hukumatining ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holda ilg_or rus ijtimoiy ongi, madaniyati, adabiyoti, fan-texnikasi turli yo'llar bilan Turkistonga kirib kela boshladi. Bu olimlarning hammasi o'lka ma'naviy hayoti, adabiyoti, madaniyati ziyolilari ongida sekinlik bilan bo'lsa ham o'zgarish yasadi, fikriy uyg'onishi uchun mustahkam tarixiy zamin yaratdi. O'lkada milliy ozodlik g'oyalari yanada rivojlandi. Bu buyuk g'oyaning O'rta Osiyoga tarqalishi milliy va mustamlaka zulmiga hamda chorizmga qarshi harakatning yuzaga kelishi va o'zbek xalqi tarixida muhim rol o'ynadi".

Donish tomonidan ilgari surilgan maktablarni isloh qilish, dunyoviy va diniy ta'limni uyg'unlashtirish, axloqiy yetuklikni ta'minlash, xalqni ilmga da'vat etish kabi g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Misol uchun, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan Prezident maktablari, ijod maktablari, diniy bilim yurtlari ham Donish ilgari surgan tizimga mos keluvchi model sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Uning 1870-yillarda yozilgan "Tartibi mulk" (Tartib haqida risola) asarida keltirilgan fikrlar, ya'ni davlat va jamiyat boshqaruvida adolat, ilmlilik va ochiqlik zarurligi haqidagi g'oyalar, hozirgi kunda "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasining ma'naviy tayanchlaridan biri sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

Ahmad Donishning g'oyaviy merosi ayniqsa ta'lim tizimida o'z aksini topmoqda. Uning yosh avlodni ma'rifatli, bilimli, tarbiyali etib voyaga yetkazish haqidagi qarashlari bugungi kunda olib borilayotgan islohotlarning ideologik asoslaridan biridir. U insonni kamolga yetkazish uchun ta'lim-tarbiyani, dunyoviy bilimni, axloqiy yetuklikni asosiy poydevor sifatida ko'rgan.

Shuningdek, Donish ijtimoiy ongni yangilash zarurligini ko'rsatgan. U jamiyatdagi illatlar – johillik, adolatsizlik, qoloqlikni tanqid qilgan va inson onginging uyg'onishini ijtimoiy taraqqiyot garovi deb bilgan. Bu qarashlar XXI asrning o'zida ham dolzarb. Masalan, bugungi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi kurash, sud-huquq islohotlari, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kabi yo'nalishlar Donish falsafiy qarashlariga uyg'un tarzda amalga oshmoqda.

Donishning siyosiy tafakkurdagi merosi ham bugungi davrda o'z aksini topmoqda. U siyosiy ongni rivojlantirish, xalqning boshqaruv jarayonlarida faol ishtirokini ta'minlash tarafdori edi. Uning fikricha, xalqni bilimli qilish orqali siyosiy qarorlarni ongli qabul qiladigan, davlat boshqaruvida faol ishtirok etadigan kuchga aylantirish mumkin.

Bugungi O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida Ahmad Donish g'oyalari amalda o'z ifodasini topmoqda. Xususan:

- Ta'lim tizimining modernizatsiyalashuvi
- Diniy-ma'rifiy islohotlar
- Ijtimoiy adolat prinsiplariga asoslangan boshqaruv
- OAV erkinligi, siyosiy islohotlar va demokratik institutlarning mustahkamlanishi.

Donishning g'oyalari hozirgi kunda ilmiy doiralarda ham keng o'rganilmoqda. Falsafa, tarix, pedagogika yo'nalishidagi tadqiqotlarda uning qarashlari zamonaviy kontekstda tahlil etilmoqda.

Ahmad Donish inson erki va gumanizm g'oyalari ilgari surgan. U insonning o'z taqdirini o'zi belgilashi, faol hayot kechirishi zarurligini ta'kidlagan. Bugungi kunda, inson huquqlari va erkinliklari masalalarida Ahmad Donishning bu g'oyalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ahmad Donish ilm-fan va texnologiya rivojiga katta e'tibor bergan. U ilg'or mamlakatlardan ibrat olish, ilm-fanni rivojlantirish zarurligini ta'kidlagan. Bugungi kunda, O'zbekistonda ilm-fan va texnologiya sohasida olib borilayotgan islohotlar jarayonida Ahmad Donishning bu qarashlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Ahmad Donishning falsafiy qarashlari, garchi XIX asrda shakllangan bo'lsa-da, XXI asrda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. U zamonaviy islohotlarning ideologik asosini tashkil qiluvchi mutafakkir sifatida o'zbek ma'naviy tafakkurining ajralmas bir bo'lagidir.

Yangi O'zbekiston davri – bu tarixiy xotirani tiklash, madaniy merosni asrash va uni global miqyosda targ'ib qilishda sifat jihatdan yangi bosqichni boshlab bergan davrdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan islohotlar natijasida tarixiy-madaniy merosga bo'lgan munosabat strategik darajaga ko'tarildi. Endilikda madaniy meros nafaqat milliy o'zlikning asosi, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida, turizmni rivojlantirishda va xalqaro imijini mustahkamlashda muhim omil sifatida qaralmoqda.

Yangi O'zbekiston davrida milliy uyg'onish g'oyalari, ma'naviy yangilanish va tarixiy xotirani tiklash siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri — o'zbek ma'naviyatining yirik namoyandalari, mutafakkirlarining boy ilmiy va falsafiy merosini chuqur o'rganish, saqlash va targ'ib qilishdan iboratdir. Bu borada XIX asrning oxiri va XX asr boshlaridagi jadidchilik harakatining yetuk namoyandasi Ahmad Donishning merosini tiklash, uni bugungi zamon ruhiga mos talqin etish alohida e'tiborni talab qilmoqda.

Ahmad Donish – ma'rifatparvar olim, tarixchi, mutafakkir va islohotchi sifatida o'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy fikrlashida chuqur iz qoldirgan shaxsdir. Uning asarlari faqatgina tarixiy voqealar aks ettirilgan manbalar emas, balki jamiyat tuzilmasi, siyosiy boshqaruv, ma'naviy yangilanish va ilm-fan taraqqiyoti haqida ilgari surilgan konseptual g'oyalar to'plamidir.

So'nggi yillarda Ahmad Donish merosini tiklash bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda muhim islohotlar amalga oshirilmoqda:

1. Ilmiy-tadqiqot va nashriyot faoliyati: 2021-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti tomonidan Ahmad Donishning “Navodir ul-vaqoe” asarining yangi tahrirdagi ilmiy-nazariy izohli nashri chop etildi. Unda nafaqat tarixiy voqealar bayoni, balki muallifning siyosiy-falsafiy qarashlari, islohiy g'oyalari

kontekstual tahlil qilinib, zamonaviy ilmiy muomalaga kiritildi. Shu bilan birga, Donishning “Risola dar bob-i hukumat” asari asosida siyosiy tafakkur tarixiga oid yangi ilmiy maqolalar nashr qilinmoqda.

2. Ta'lim tizimiga integratsiya: 2022-yildan boshlab Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Samarqand davlat universiteti hamda O'zbekiston Milliy universitetida Ahmad Donish merosiga bag'ishlangan alohida seminar va modullar yo'lga qo'yildi. Jumladan, “Jadidlar merosi va zamonaviy davlat boshqaruvi” fanida Donishning siyosiy qarashlari alohida mavzu sifatida o'rganilmoqda. Bu orqali Donishning zamonaviy boshqaruv, adolat va qonun ustuvorligi haqidagi g'oyalari yosh avlod tafakkuriga singdirilmoqda.

3. Madaniy-ma'rifiy tadbirlar: 2023-yilda Ahmad Donish tavalludining 195 yilligi munosabati bilan Toshkent, Buxoro va Samarqand shaharlarida “Ahmad Donish va jadidlar islohiy tafakkuri” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazildi. Buxorodagi anjumanda Eron, Turkiya, Rossiya va Afg'onistondan olimlar ishtirok etib, Donishning asarlari xalqaro nuqtai nazardan qayta baholandi.

4. Xorijiy hamkorlik va xalqaro targ'ibot: O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va YUNESKO bilan hamkorlikda 2024-yilning may oyida Parijda “O'rta Osiyo islohiy tafakkuri va Ahmad Donish” mavzusida xalqaro ko'rgazma tashkil etilishi rejalashtirilgan. Ushbu ko'rgazmada Donishning qo'lyozmalari, tarjima qilingan asarlari va hayotiga oid arxiv fotosuratlar namoyish qilinadi. Bu bilan Ahmad Donish nomi xalqaro madaniy muhitga faol ravishda olib chiqilmoqda.

5. Virtual platformalar va raqamlashtirish: 2023-yilda O'zbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan Ahmad Donishga oid 50 dan ortiq manba – uning asarlari, tarjimalar, ilmiy maqolalar va monografiyalar “Ziyonet” va “Milliy meros” elektron platformalari orqali raqamli shaklda joylashtirildi. Ushbu bazalardan maktab o'qituvchilari, talabalar, tadqiqotchilar foydalanib, tezkor va ochiq manbalar orqali bilim olish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda.

Shu asosda Ahmad Donish merosini tiklash ishlari nafaqat uni o'tmishdagi tarixiy shaxs sifatida yodga olish, balki uni zamonaviy ijtimoiy-falsafiy va siyosiy fikrlar kontekstida jonlantirish, uning g'oyalarini amaliy va konseptual jihatdan integratsiya qilishga xizmat qilmoqda.

Yangi O'zbekiston davrida tarixiy-madaniy merosga nisbatan shakllangan siyosiy va ilmiy yondashuvlar jamiyatning o'zligini anglash, milliy g'urur va tarixiy xotirani mustahkamlashda muhim omil sifatida maydonga chiqmoqda. Ayniqsa, Ahmad Donish kabi ma'rifatparvar va islohotchi mutafakkirlarning boy merosini o'rganish, uni bugungi jamiyat taraqqiyoti kontekstida qayta talqin qilish,

O'zbekistonning zamonaviy rivojlanish konsepsiyasiga g'oyaviy va nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Tarixiy-madaniy merosni tiklash jarayonida quyidagi istiqbolli yo'nalishlar alohida ahamiyat kasb etadi:

1. Ahmad Donish merosining zamonaviy ijtimoiy-siyosiy hayotga integratsiyasi – uning ijtimoiy adolat, ilm-fan va ma'naviyatga asoslangan boshqaruv g'oyalari bugungi davlat siyosatining asosiy tamoyillari bilan uyg'un holda o'rganilishi lozim.

2. Ta'lim tizimida mutafakkirlar merosini chuqur integratsiya qilish – maktab va oliy ta'lim tizimida Donish kabi mutafakkirlarning qarashlari mustaqil fanlar va kurslar shaklida joriy etilishi, yosh avlodda tarixiy tafakkur va tanqidiy dunyoqarashni shakllantirishda muhim vosita bo'la oladi.

3. Raqamli arxivlar va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy qilish – tarixiy manbalarni raqamlashtirish, sun'iy intellekt asosida izlash va tahlil qilish imkoniyatlari kengaytirilsa, ilmiy izlanishlar samaradorligi ortadi.

4. Xalqaro hamkorlik va ilmiy aloqalarni kuchaytirish – Ahmad Donish merosi faqat milliy emas, balki global madaniy boyluk sifatida ko'rilishi zarur. Uning asarlari ingliz, rus, turk va fors tillariga tarjima qilinib, xorijiy universitetlar va markazlarda targ'ib qilinishi kerak.

5. Madaniy diplomatiyada merosdan foydalanish – O'zbekistonning xalqaro imijini mustahkamlashda Donish singari mutafakkirlar orqali "yumshoq kuch" siyosati yuritish, xalqaro ko'rgazma, konferensiya va madaniy forumlarda ularning fikrlaridan foydalanish dolzarbdir.

Xulosa qilib aytganda, Ahmad Donishning ilmiy-falsafiy qarashlari va uning tarixiy merosi Yangi O'zbekiston taraqqiyotining mafkuraviy negizlaridan biri sifatida xizmat qilish imkoniyatiga ega. Bu merosni chuqur o'rganish, zamonaviy kontekstda talqin etish va keng jamoatchilikka yetkazish orqali nafaqat tarixiy adolat tiklanadi, balki kelajak avlod uchun mustahkam ma'naviy asos yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Рачабов З. Ш. Маорифпарвар Аҳмади Дониш. – Душанбе, 1964. – С. 282.
2. Багоутдинов А. М. Очерки по истории таджикской философии. – Сталинабад, 1961. – С. 282
3. Ahmad Donish. Navodir –ul vaqoe. Fors-tojikdan tarjima qiluvchilar. Alixonto'ra Sog'unliy va A.Xamroyev. Toshkent-Istanbul 2021. B-17.
4. Гафуров Б. Г. Толъикон. Китоби 2. – Душанбе, 1985. – С. 280
5. Ленин В. И. Пробуждение Азии // Полн. Собр. Соч. Т. 23. – С. 145-146.